

**STARTAPLARDA LOYIHA BOSHQARUVI:
TEZ O'SUVCHAN MUHITDA "AGILE" VA "LEAN" YONDASHUVLARNING
SAMARADORLIGI**

Sodiqov Elmurod Shomurod o'g'li

Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti, Xalqaro Biznes Boshqaruvi fakulteti,
2 - kurs magistratura talabasi.

+998(90)936-99-69 elmurod.sadikov@econfun.org

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16757437>

Annotatsiya. *Startup muhiti yuqori noaniqlik, tez o'zgaruvchan talablar va resurslarning cheklanganligi bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda "Agile" va "Lean Startup" yondashuvlari loyihalarni samarali boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola mazkur metodologiyalarning startaplarda qo'llanishi, ularning samaradorligi va qo'shgan qiymatini tahlil qiladi. McKinsey ma'lumotlariga ko'ra, Agile yondashuvi kapitall loyihalarda xarajatlarni kamida 10% ga qisqartirib, mahsuldorlik va bajarilish muddatini o'rtacha 10% ga oshirgan.*

Standish Group CHAOS Report ma'lumotlarida esa agile loyihalari an'anaviy loyihalarga nisbatan 39% ga yuqori muvaffaqiyat darajasiga ega. Tadqiqot yakunida startaplar uchun optimal boshqaruv modeli bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: *Startup, loyiha boshqaruvi, Agile metodologiyasi, Lean Startup, tezkor rivojlanish, noaniqlik, samaradorlik, innovatsion boshqaruv, strategik moslashuv.*

Kirish: Zamonaviy startaplar doimiy o'zgarish, yuqori noaniqlik va resurslarning cheklanganligi sharoitida faoliyat yuritadi. Bunday shart-sharoitlar an'anaviy loyiha boshqaruvi metodologiyalarining yetishmovchiligini ochib beradi va yangi yondashuvlarga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, "Agile" va "Lean Startup" yondashuvlari startap muhitida loyihalarni tez, moslashuvchan va samarali boshqarish uchun muhim vositalardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu maqola startap kontekstida mazkur yondashuvlarning qo'llanilishi, ularning o'zaro farqlari va integratsiyalangan holda qanday ustunliklar berishini nazariy hamda amaliy manbalar asosida tahlil qiladi.

Adabiyotlar sharhi: So'nggi yillarda startaplar tez o'zgaruvchan muhitda samarali boshqaruv yondashuvlarini joriy etishga ehtiyoj sezmoqda. Shu nuqtai nazardan, "Agile" va "Lean Startup" metodologiyalari global va akademik doiralarda keng muhokama qilinmoqda. McKinsey & Company tomonidan 2020-yillarda o'tkazilgan bir nechta tadqiqotlarda COVID-19 pandemiyasi davrida kompaniyalarning 70 foizi xarajatlarni kamaytirish va bozorga tez chiqish zarurati tufayli Agile transformatsiyasini boshlagani ta'kidlangan. Xususan, "Maximizing Agile Productivity to Meet Shareholder Commitments" maqolasida Agile yondashuvi orqali mahsuldorlik 10–20% ga, xarajat tejallishi esa o'rtacha 10% ga oshgani qayd etiladi. Shuningdek, "Enterprise Agility: Buzz or Business Impact?" nomli tahlilda Agile tizimlar orqali kompaniyalar "time to market"ni 40–70% ga qisqartirishga erishgan.

Bundan tashqari, "Agile Resilience: Lessons from COVID-19" maqolasida pandemiya davrida yirik moliyaviy institutlar va telekom kompaniyalari kundalik yig'ilishlar (daily stand ups), tezkor qarorlar va resurslar qayta taqsimoti orqali samaradorlikni oshirgan holatlar keltiriladi.

Ushbu maqolalar Agile yondashuvining operatsion moslashuvchanlikni ta'minlashdagi muhim ahamiyatini isbotlaydi.

Akademik adabiyotlar ham ushbu yondashuvlarning samaradorligini mustahkamlaydi.

Masalan, ArXiv.org'da chop etilgan tadqiqotda 84 ta startup tahlil qilinib, Agile metodlari (backlog yuritish, user stories, refactoring) kod sifati va resurslardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirgani aniqlangan. Springer nashrida chop etilgan yana bir izlanishda 1526 startup ishtirokida Lean yondashuvni qo'llaganlar Agile amaliyotlarini — test-first, frequent release, daily stand-up — ko'proq joriy qilgani ko'rsatilgan. Bu Lean va Agile o'rtasidagi tabiiy sinergiyani isbotlaydi.

Journal of Business Research'da esa Lean Startup metodologiyasining biznes-model innovatsiyasiga ta'siri chuqur o'rganilib, feedback loop va minimal viable product (MVP) konsepsiyalari orqali startaplar tezroq sinov, moslashish va pivot jarayonlarini boshdan o'tkazgani ko'rsatilgan. Bu yondashuvlar integratsiyasi startaplar uchun yuqori moslashuvchanlik va resurslarni oqilona taqsimlash imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Maqsad va tadqiqot savollar: Ushbu ilmiy tadqiqotning bosh maqsadi tez sur'atlarda rivojlanayotgan startup muhitida Agile va Lean Startup metodologiyalarining loyiha boshqaruvi samaradorligiga ta'sirini chuqur tahlil qilish va ularning qo'llanilishi orqali kompaniya ichki jarayonlarining, jamoa faoliyatining va bozorga chiqish tezligining qanday o'zgarishini aniqlashdir. Startaplar, tabiatan, yuqori noaniqlik va tezkor qaror qabul qilish muhitida faoliyat yuritadi. Shu sababli, ularning muvaffaqiyati ko'pincha moslashuvchan boshqaruv tizimlaridan foydalanish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Tadqiqot quyidagi savollar atrofida shakllanadi:

1. Agile va Lean metodologiyalari startaplarda loyiha boshqaruviga qanday real ta'sir ko'rsatadi?
2. Bu yondashuvlar startaplarning strategik qaror qabul qilish tezligi va innovatsion mahsulotlar yaratish jarayoniga qanday ta'sir qiladi?
3. Qaysi startup bosqichlarida (idea, MVP, scaling) bu metodologiyalar eng samarali natija beradi?

Gipotezalar: Tadqiqot quyidagi gipotezalarni sinovdan o'tkazadi:

- H1: Agile metodologiyasi asosida ishlaydigan startaplar bozorga chiqish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi.
- H2: Lean Startup yondashuvi startaplar tomonidan resurslarning yanada samarali taqsimlanishini ta'minlaydi.
- H3: Agile va Lean yondashuvlarining kombinatsiyasi jamoalar orasidagi kommunikatsiya samaradorligini oshiradi.
- H4: Ushbu metodologiyalarni joriy qilgan startaplar raqobat muhitida tezroq adaptatsiyalanadi.

Metodologiya: Tadqiqotda aralash yondashuv, miqdoriy va sifatli metodlar uyg'unligi qo'llaniladi. Miqdoriy tahlil uchun 2020–2024-yillar oralig'ida faoliyat yuritgan Yevropa va Osiyo mintaqasidagi 100 ta startup korxonaga so'rovnoma yuboriladi. Unda loyiha davomiyligi, jamoa hajmi, bozorga chiqish muddati, Agile/Lean yondashuvlarining mavjudligi, MVP ishlab chiqish va foydalanuvchi fikrlariga asoslangan iteratsiyalar soni kabi mezonlar baholanadi.

Sifatli tahlil uchun esa yarim strukturalangan intervyular orqali 10 ta startup asoschisi bilan chuqur suhbatlar o'tkaziladi. Ushbu suhbatlar orqali metodologiyaning real ish jarayoniga ta'siri, qaror qabul qilishdagi o'zgarishlar, va jamoaviy koordinatsiyaning sifatini aniqlash maqsad qilinadi.

Ma'lumotlar tahlili uchun regressiya modellari, tarkibiy tahlil, va kontent-analiz vositalaridan foydalaniladi. Shuningdek, benchmarking asosida yuqori samaradorlikka erishgan va erisha olmagan startaplar solishtiriladi.

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalar olinishi kutilmoqda:

1. Agile metodologiyasi, ayniqsa iteratsion yondashuv orqali, mahsulotni bozorga tez olib chiqish va foydalanuvchi fikriga tezkor javob berish imkonini beradi.

2. Lean yondashuvi orqali startaplar minimum viable product (MVP) ishlab chiqish va uni real foydalanuvchilar asosida takomillashtirish orqali resurslarni ortiqcha sarflamasdan, tezkor iteratsiyalarni amalga oshiradi.

3. Agile va Lean metodologiyalarining kombinatsiyasi startaplarda ichki jarayonlarni soddalashtirish, kommunikatsiyani yaxshilash va tashqi o'zgaruvchan muhitga tez moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

4. Metodologiyalarni noto'g'ri yoki qisman joriy etgan startaplarda natijalar sezilarli emas — bu holat yondashuvlarning chuqur tushunilishi va to'liq implementatsiyasining muhimligini ta'kidlaydi.

Ushbu natijalar asosida model sifatida taklif qilinadigan "Agile-Lean Integration Framework" startaplar uchun tavsiya sifatida ishlab chiqiladi.

Munozara va tavsiyalar. Agile va Lean metodologiyalarining startap muhitida qo'llanilishi, albatta, zamonaviy boshqaruvning transformatsiyasini anglatadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, bu yondashuvlar faqatgina texnik metodlar emas, balki kompaniya madaniyatiga chuqur integratsiyalashgan boshqaruv falsafasidir. Ayniqsa, o'zgaruvchan va yuqori noaniqlik hukm surayotgan muhitda qaror qabul qilish tezligi, bozorga chiqish muddati va foydalanuvchi qiymatini maksimal darajada yaratish ularning asosiy ustunliklaridan hisoblanadi.

Agile metodologiyasining sprintlar, retrospektiva va iteratsiyalarga asoslangan tabiati startap jamoalariga tezkor o'zgarishlarga moslashishga yordam beradi. Shu bilan birga, Lean Startup yondashuvi "hypothesis-test-learn" sikliga asoslanib, har bir mahsulot qarorini empiric dalillar bilan asoslashni ta'minlaydi. Ushbu kombinatsiya orqali startaplar nafaqat resurslarni tejaydi, balki foydalanuvchining real ehtiyojlariga tezroq yetib boradi.

Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Boshlang'ich bosqichdagi startaplar uchun Lean metodologiyasi ustuvor bo'lib, MVP ishlab chiqishga yo'naltirilgan resursni tejoychi strategiyani tanlash kerak.

2. O'sish bosqichidagi startaplar esa Agile jarayonlarini to'liq joriy qilish orqali ichki jamoa samaradorligini oshirishi lozim.

3. Startaplar Agile va Lean'ni bir-birini to'ldiruvchi mexanizm sifatida ko'rishi, ularni bir butun transformatsion yondashuv sifatida joriy qilishi maqsadga muvofiq.

4. Investitsion qarorlar qabul qilinayotganda, investorlar startapning ushbu metodologiyalarni qay darajada amaliyotga joriy etganligini tahlil qilishi samarali risk menejment uchun muhimdir.

Adabiyotlardan foydalanildi:

1. Blank, S. (2013). Why the Lean Start-Up Changes Everything. Harvard Business Review.
2. Denning, S. (2018). Understanding the Agile Movement. Forbes.
3. Kniberg, H. (2015). Spotify Engineering Culture. Crisp.
4. McKinsey & Company. (2018). The journey to an agile organization.
5. McKinsey & Company. (2020). Agility: A value-driving force in turbulent times.

6. Pantiuchina, J., Khomh, F., Zou, Y., & Adams, B. (2017). How do Agile practices impact
7. code quality? Insights from a large-scale empirical study. In Empirical Software
8. Engineering, 22(2), 579–630.
9. Ries, E. (2011). The Lean Startup: How Today's Entrepreneurs Use Continuous
10. Innovation
11. to Create Radically Successful Businesses. Crown Business.
12. World Bank. (2021). Innovation and Startup Ecosystems in Emerging Markets.